

TARJIMASHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISHI VA TARJIMA ASARLARNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI

Muhlisa Muzaffarjon qizi Tursunboyeva

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Muqumjon Muhammadaminovich Axunov
(PhD) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tarjimashunoslik fanining rivojlanishi va tarjima asarlarning adabiyotiga kirib kelishi haqida umumiy tushunchalarining lingvistik xususiyatlariga haqida to‘la ma’lumot berish va o‘zbek va ingliz tillarida tarjimashunoslik fanining rivojlanishi sohasidagi barchan tasvir va ifoda vositalari birini tashkil qiladi. Bu tarjimashunoslik fanining vositalari haqidagi ma’lumotlarga ilmiy xulosa yasash va kengroq tushuncha berishdan iborat bo‘lgan xodisalarni ochib berishdir.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, badiiy adabiyot, leksik, grammatik va lingvistik, semantik, gap tuzilish.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugunki kunda zamonaviy adabiyotning o‘rni katta. Milliy asarlar bilan bir qatorda jahon adabiyotidan tarjima namunalar ham kitobxonga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Badiiy adabiyotning boyish yo‘llaridan biri jahon adabiyotidan ilmiy va badiiy asarlarni ona tiliga tarjima qilish ishlaridir. Tarjima - murakkab san’atdir. Uning xususiyati to‘g‘risida ko‘pgina ziddiyatli fikrlar va qarashlar boyligi tug‘ilib keldi. Mutlaqo amaliy yondashilganda ham bir tildagi badiiy ilmiy asarning qayta tug‘ilishining murakkabligi ko‘rinib turardi. Teatr ham kino ham tarjimasiz rivojlana olmaydi. Tarjimaning har bir janri, turi o‘z tarjima muammolariga ega.

Har bir tarjima janri va turi o‘ziga xos muammolarga ega bo‘lib, tarjima usullari adabiy asarlar obrazlarini yaratishda, ularning asosiy mavzulari va motivlarini joylashtirishda, shuningdek, badiiy vaqt va makonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarjima qilinayotgan asarlar faqat mazmun-faktik jihatdan emas, balki subtekst ma’lumotlarini ham beradigan asosli hujjatlardir. Matnning g‘oyaviy-estetik mazmunini va ko‘pincha yashirin ma’nularni ochish, semantik jihatdan yetarli bo‘lmagan obrazlar qo‘shilganida, semantik jihatdan boyitilib, ma’lum assotsiativ ma’nularni qo‘zg‘atuvchi signal vazifasini bajaradi. Tarjima jarayoni to‘g‘ri va

tushunarli bo'lishi uchun tarjimon asar bilan butun vujudi bilan ishlashi kerak, va ma'lum bir tarixiy va madaniy asoslarga ega bo'lishi zarur.

Tarjomashunoslik xalqning ma'naviy madaniyatiga badiiy rivojiga hissa qo'shadi. Poeziyamizda falsafiy kategoriyalar, mangulik, vijdon va insoniy burch singari adabiy motivlar kechar ekan bunda "Yevgeniy Onegin" Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari she'riy shaklda va yuksak poetik asarlarning "Ilohiy komediya" singari yaxshi tarjimalariga erishildi. Tarjima jahonda tinchlikni barqaror etish uchun kurash g'oyalarini tashviqot qiluvchi ta'sirchan omil bo'lib qolmoqda. Badiiy tarjima san'ati, ahamiyati va uning yutuqlarini keng targ'ib qilishda K.Yashin, V.Zohidov, I.Sultonov, A.Muxtor, L.Qayumov, J.Sharipov, A.Qayumovlarning xizmatlari katta. O'zbek tilidan fransuz tiliga Cho'lponning «Kecha va kunduz» ("Nuit" — "Tun") romani tarjima qilindi. Bu roman realiyalarga boy va ularning ko'pi fransuz tilida birinchi bor berilgan. Ayni shu asnodan fransuz tilidan o'zbek tiliga ham ko'plab nodir asarlar tarjima qilindi. Jumladan, Moriakning "Ilonlar changalida" romani (1995, Sh.Minavarov), Volterning "Zadig yoki taqdir" qissasi (1995, R.Qilichev va M.Xolbekov), Sh.L.Monteskening "Fors nomalari" romani (1999, Sh.Minavarov, R.Qilichev, H.Orziqulov), L.Kerenning "Amir Temur saltanati" romani (1999, B.Ermatov), Sh.Perroning "Ona g'oz ertaklari" (2000), Le Klezioning "Mondo" (2000, Sh.Minavarov) hikoyalar to'plamlari. Tarjimada o'zbek mentalitetining o'ziga xosligini berish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Zero ikki xil diyorda yashovchi elatlarning turmush tarzi, o'ylari va fikrlashi turli bo'lishi aniqdir. Farqli fikrlarni moslashtirib tarjima qilish murakkab masaladir.

Tarjimaning maqsadi: asl nusxa tilini bilmagan kitobxon yoki tinglovchini o'sha asar ruhiyati bilan to'la mukammal tanishtirish. Tarjimachilik ishining bu qadar keng ko'lamda qo'yilganiga sabab shuki: Tarjima –birodarlik, qardoshlik, do'stlik ilmidir. Tarjima uzoq masofani yaqin qiladi, tarjima o'zгани birodar, tanishni qadrdon qiladir.

Tarjimaning, xususan, badiiy tarjimaning nazariy masalalari ancha keng o'rganilgan bo'lib, hozirda ilmiy darajaga ega bo'lgan 30 dan ziyod tarjimashunos olim mutaxassislar, o'ndan ortiq monografiyalar, to'plamlar, minga yaqin ilmiy maqolalar mavjud. "Rus tarjimashunosligida, bu sohadagi qamrovi keng amaliy faoliyatga muvofiq holda, katta ishlar qilingan. Ustod tarjimashunos olim A.V.Fyodorovning «Umumiy tarjima nazariyasi asoslari» darsligi, Yu. M. Katser, V. A. Kunin, Ya. I. Resker, V. N. Komissarov, L. S. Barxudarov, V. N. Krupnov, R. K. Minyar-Beloruhev, S. S. Tolstoy, M. M. Morozov, A. D. Shveyser va boshqa ko'p olimlarning Garbiy Yevropa tillaridan rus tiliga (va aksincha) qilingan tarjimalar sohasidagi ulkan tajribani o'rganish asosida barpo etilgan turli-tuman darslik, o'quv qullanmalari mavjud. Hatto o'rta maktab o'quvchilari uchun ham tarbiyaviy ahamiyatdagi asarlarni o'zbek tiliga rus

tilidan tarjima qilingan Uspenskiyning “Fyodr Amaki” hikoyalari ham misol bo‘la oladi. Masalan, N.D.Cheburashkinning bir qancha predmetlar ingliz tilida olib boriladigan maktablarning IX—X sinflari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan”¹ Rus tarjimashunosligining ilk davrlarda o‘zbek tarjima maktabining rivoji uchun ham hissasi katta bo‘ldi.

O‘zbek tarjimashunoslik maktabini yaratishda qadimiy bilim va ko‘nikmalar bilan birga, rus tilida yozilgan ilmiy maqolalarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va darslik sifatida foydalanilishi mamlakatimizda ushbu fan rivojida muhim rol o‘ynadi. Jumaniyoz Sharipovning “O‘zbekistonda tarjima tarixidan” (Toshkent, 1965) va Ibrohim G‘ofurov, N.Qambarovlar "Tarjima nazariyasi" kabi darsliklar O‘zbek tarjimashunoslik maktabi uchun asosiy manba bo‘lib qoldi. Qardosh respublikalarda o‘rganilgan tajribalar asosida har bir xalq o‘z milliy tarjima maktabini yaratib, uning noyob xususiyatlarini e‘tiborga oladi. Masalan, rus tarjimachiligi maktabi asarlarni fransuz, lotin, ingliz, nemis tillaridan rus tiliga va aksincha tarjima qilish orqali an’anaviy tus olgan. O‘zbek adabiyotida esa 60 foizdan ortiq asarlar rus tilidan tarjima qilingan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa xalqlarining ko‘plab asarlari rus tilidagi tarjimalar orqali o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan va tarjima qilinayotgan asar o‘z ichiga uch xil tarjima maktabini va turli xil tarjima qochirimlarini oladi. Ayni vaqtda o‘zbek tarjimashunoslik maktabi oldida Yevropa tillarida yozilgan asarlarni o‘zbek tiliga va o‘zbek tilida Yevropa tillariga bevosita tarjima qilish masalasi turadi. Bu murakkab ijodiy muammoni hal etish esa yetuk tarjimonlik maktabi vakillarining bugungi kundagi asosiy vazifasi hisoblanadi. Dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini mahorat bilan tarjima qilish orqali, asar muallifining noyobligini, voqea zanjirini tarjima qilinayotgan tilning semantik va pragmatik xususiyatlariga moslashtirish mahorati baholanadi. Asar muallifining kechinmalarini va his-tuyg‘ularini ochib berishda tarjimonning mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda til belgilarining grammatik va lingvistik me‘yorlari qo‘llaniladi, deyktik belgilar farqlari inobatga olinadi. Tarjimonning so‘z boyligi va tarjima qilinayotgan asar muhitiga yaqinligi katta ahamiyatga ega. Asarning to‘laqonli mazmunini ochib berish uchun tarjimon muallifning davrini, madaniyatini, ijtimoiy holatini bilishi va his qilishi lozim. Ko‘plab holatlar bunday elementar narslarga ahamiyat bermaslik asarning qo‘pollashishiga, uning o‘zligini yo‘qotib kitobxonda u haqida salbiy fikr uyg‘otishi

plab nashr etilayotgan mumkin.

Ko‘tarjima asarlarning sarlavhalaridayoq ko‘zga ko‘rinayotgan xatoliklar, yoki qo‘llanilayotgan nomunosib so‘zlar ham asarning nufuziga putr yetkizadi. Zero shunday asarlar

¹ Hamidov X.X Trajimashunoslik ma‘ruzalar matni 11-bet

borki ularning Sarlavhasini tarjima qilishda asosan keltirilgan voqelikdan kelib chiqib, asarning mohiyatini uning m'anosini bildiruvchi so'zlarni qo'llash yaxshi samara bergan. Shunday asarlardan biri "Pride and prejudice"- "Andisha va G'urur" asari bulib adib bu asarda o'rta asrlar davridagi qiz ayollarning kechinmalari, ularning his tuyg'ulari bilan bir qatorda ijtimoiy -siyosiy holatlari ham ochib berilgan. Va ularning meros huquqlari erkaklarnikiga qaraganda ancha past bo'lishi ham asarda qoralangan. Shu sababli bosh qahramonning g'ururi va uning o'ziga xos kuchli karakterini va kechinmalarini asarning tarjima qilingan sarlavhasidan ham bilib tushunib oolish mumkin. Mazmun mohiyat berish bilan bir qatorda, kitobxon tiliga moslashish ham tarjimaning nozik sirlaridan hisoblanadi, Andisha va G'urur asarining ingliz tilidan leksik tarjimasi aslida "G'urur va Xurofot" kabi tarjima qilinib "Xurofot"² so'zi o'zbek tilining lu'gaviy ma'nolari kitobida "oldin paydo bo'lgan bilim, noto'g'ri tushuncha"³ ma'nosini beradi. Tarjimon shu o'rinda o'zining individual mahoratini ochib berish uchun xurofot so'zining o'rniga kitobning mazmun mohiyatini ko'rsatib beruvchi andisha so'zini qo'llagan va so'zlarning o'zaro badiiy uyg'unligini namoyon qilish uchun o'rnini almashtirgan G'urur va andisha- andisha va g'urur. Bu bilan tarjimon so'zning ham qofiyaviligini yuzaga chiqarib, ham milliy o'zbek tarbiyasida farzand ayniqsa qiz bola uchun andisha uning g'ururidan oldin turishini yosh avlodga eslatib singdirib ketmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunga kelib badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish kattaligi sababli chet tillarga bo'layotgan qiziqish kundan kun ortib,uni o;rganuvchilar soni ham oshib bormoqda. Adabiy taraqqiyot tarjimasiz shakllanmasligi hech kimga sir emas. Tarjimaning turli hil vazifalari va asoslari ko'pchilikka sir emas. Asarlari boshqa tilga tilga tarjima qilingan adiblar el o'ziga tushishi kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lishi mumkin ammo asarning boy g'oyaviy mazmuni haqida ham unutmazlik, uning me'yoriy qoliplaridan chetga chiqmaslik, sifatini buzmaslik ko'plab tarjimonlarga pand berib qo'ymoqda. Asliyat tilini mahorat bilan ishlatish, uning pragmatik jihatlarini ochib bermaguncha yaxshi tarjimon bo'lish murakkab masala. Ona tilini nozik o'ziga xos qirralarini ushbu tilni yaxshi bilgan, tarjimongina mohirona ishlata oladi va so'zlarni o'zaro bog'liqligini silliq ko'rsatib bera oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи ,1978. Б 407

² O'zbek tilining izohli lug'ati;O'zbekiston nashriyoti 2020 yil

2. Primary Author Nina Evason, 2016 cultural atlas- family
3. G‘ofurov I va boshqalar tarjima nazariyasi “Tafakkur Bo‘stoni” Toshkent 2012;87-bet
4. J.Sharipov. “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar”. Toshkent1977.
5. Q .Musayev “Tarjima nazariyasi asoslari” – T., 2005. 22-bet
6. Hamidov X.X “Tarjimashunoslik” ma‘ruzalar matni 11-bet
7. Salomov G‘. Tarjimon mahorati. Toshkent: “Fan”, 1979.
8. Southam, “Criticism”, 1870-1940“, The Jane Austen Companion, 102
9. Kamoljonovich, S.J., & O‘G, Y. N. U. B. (2022). Badiiy tarjima uchun tarjima usullari tahlili (Ian Tuhoviskiy asarlari misolida). Ta‘lim fidoyilari, 18(5), 32-37.
10. Salomov G‘. “Til va tarjima”. Toshkent; “Fan”,1966.
11. Hazratqulov M. “Uslub va tarjima haqida ba‘zi kuzatishlar” Tarjima san’ati. 4-kitob. – T., 1978
12. E. Ochilov. “Tajima nazariyasi va amaliyoti”. – T., 2012
13. S. Normamatov “Leksikografiya asoslari “ o‘quv qo‘llanma-Toshkent- 2020 97-bet